

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI GOSPITAL
PEDAGOGIKASI VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISHGA DIDAKTIK YONDASHUV

Usmonova Hulkar Shavkat qizi
Guliston davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqola bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini gospital pedagogikasi vositasida rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga didaktik yondashuvni o'rganadi. Gospital pedagogikasi ta'lim jarayonini sog'liqni saqlash muassasalarida tashkil etish va o'qituvchilarning kasallik davrida bilim olishlarini ta'minlashga qaratilgan maxsus yondashuvdir. Maqolada kasbiy kompetentlik tushunchasi, gospital pedagogikasining asosiy metodlari va ularning o'qituvchilarni tayyorlashdagi ahamiyati ko'rib chiqiladi. Shuningdek, didaktik yondashuvlar orqali o'qituvchilarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali usullari taklif etiladi. Ushbu tadqiqot, ta'lim tizimida sog'lom avlodni tarbiyalashda hospital pedagogikasining rolini yanada oshirishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: gospital pedagogika, kasbiy qobiliyat, pedagog, bemor, kasallik, ko'nikma, tajriba, jahon tajribasi, ta'lim jarayoni.

Аннотация: В данной статье рассматривается дидактический подход к совершенствованию методики формирования профессиональной компетентности будущих учителей средствами госпитальной педагогики. Госпитальная педагогика – это особый подход, направленный на организацию образовательного процесса в учреждениях здравоохранения и обеспечение получения студентами знаний во время болезни. В статье рассматривается понятие профессиональной компетентности, основные методы госпитальной педагогики и их значение в подготовке педагогов. Также предлагаются эффективные методы развития профессионального мастерства педагогов посредством дидактических подходов. Данное исследование будет способствовать дальнейшему повышению роли госпитальной педагогики в системе образования в воспитании здорового поколения.

Ключевые слова: госпитальная педагогика, профессиональная компетентность, учитель, пациент, болезнь, навыки, опыт, мировой опыт, образовательный процесс.

Abstract: This article studies a didactic approach to improving the methodology for developing professional competence of future teachers through hospital pedagogy. Hospital pedagogy is a special approach aimed at organizing the educational process in healthcare institutions and ensuring that students receive knowledge during illness. The article considers the concept of professional competence, the main methods of hospital pedagogy and their importance in training teachers. Also, effective methods for developing teachers' professional skills through didactic approaches are proposed. This study will help to further enhance the role of hospital pedagogy in the education system in raising a healthy generation.

Keywords: *hospital pedagogy, professional competence, teacher, patient, disease, skills, experience, world experience, educational process.*

Hozirgi zamon jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ro'y berayotgan katta o'zgarishlar kasbiy faoliyatning mazmuni va harakterini sifat jihatdan qayta o'zgartirishni, bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-kasbiy safarbarligi darajasini, raqobatbardoshligini belgilovchi sifatlar (nazariy bilim va amaliy tayyorgarlikning o'zviyligi va birligi, kasbiy kompetentlik, moslashuvchanlik va kasbiy safarbarlik, kasbiy vazifalarni hal etish usullarini egallash, turli kasbiy muammolarni yecha bilish qobiliyati, o'ziga ishonch, mas'uliyat, muvaffaqiyatga intilish, faol hayotiy va kasbiy pozitsiya, o'zining amaliy tajribasini muntazam boyitishga tayyorgarlik)ni talab etmoqda.

Zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi jamiyat va davlat uchun har tomonlama rivojlangan, jamiyatga, mehnat faoliyatiga ijtimoiy moslashuvchan, o'z ustida ishlay oladigan shaxsni tayyorlashdan iborat. Bu haqda mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoev ta'kidlaganlaridek, "jamiyatning eng dolzarb muammolarini yuqori saviyali mutaxassis kadrlar hal etishi, ularning kasbiy bilimdonligi, professional kompetentligi, yuksak mahorati, boy ma'naviy-axloqiy qiyofasi, madaniy saviyasiga bog'liq ekanligi isbot talab qilmaydigan harakatdir"[2].

Shuningdek, 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 4947-sonli Prezident farmonida o'rta muddatli istiqbolda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilab bergan eng muhim dasturiy hujjat hisoblanadi. Mazkur hujjat asosida ta'lim sohasiga doir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

Gematologiya, onkologiya, klinik immunologiya, boshqa stasionar va uzoq muddatli ambulator davolanishda bo'lgan bolalarga uzluksiz ta'lim-tarbiya berishni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Gematologiya, onkologiya, klinik immunologiya, boshqa stasionar va uzoq muddatli ambulator davolanishda bo'lgan bolalar uchun maktabgacha ta'lim va tarbiya hamda umumiy o'rta ta'lim berish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 5-maydagi 234-sonli qaroriga ko'ra 2022-yil 16-may kuni Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzurida "Mehrli maktab" davlat ta'lim muassasasi ya'ni, gospital maktab tashkil etildi

Uzoq muddat shifoxonada yotish, og'ir kasallik, u bilan birga keladigan cheklovlar va butun oila boshdan kechiradigan qiyinchiliklar bolaning hayot sifatining o'zgarishiga olib keladi. Bunday bolalar toifasi ta'limning uzluksizligi va ta'lim olish imkoniyatlarining tengligidan mahrum etilmasligi kerak. Milliy ta'limning gumanistik paradigmasi pedagogika fanida yangi yo'nalish - gospital pedagogikaning paydo bo'lishini belgilab berdi. Rossiya Federatsiyasi ilmiy hamjamiyatida birinchi marta 1997-yilda "Bolalar onkologiyasining ijtimoiy va psixologik muammolari" konferensiyasida gospital pedagogika muammolarini muhokama qilindi [4].

Fanlararo tadqiqotlar tufayli zamonaviy gospital maktablarining ishlash amaliyoti anglandi, bu esa gospital pedagogikasining pedagogik fan sohasi sifatida sezilarli rivojlanishiga olib keldi. Gospital pedagogikasining rivojlanishiga atoqli pedagoglar,

psixologlar va shifokorlar hissa qo'shdilar, uzoq va og'ir kasal bo'lgan bolaning somatik va psixologik holatini yaxshilash, ta'limning uzluksizligini va ta'lim olish imkoniyatlarining tengligini ta'minlash, sog'ayishga va hayot istiqbollariga qo'shimcha kayfiyatni paydo qilish uchun gospital maktabidagi ta'limning ahamiyatini isbotladilar.

Gospital pedagogikasi muammolarini o'rganishga xorijiy olimlardan Yamburg Ye.A., Sharikov S.V., Babenkova Ye.A., Gryadunova G.M., Kiseleva M.G., Amaleeva M.Yu., M. Dikson, M. Papadimitru, D. Stil, Ya. Xaverkatlar o'z hissalarini qo'shishgan. Onkologik kasalliklarga chalingan bolalarni reabilitatsiya qilish muammolariga Volkova A.G., Volodin N.N., Maschan A.A., Rumyansev A.G., Rudneva A.Ye., Sidorenko L.V., Seytlin G.Ya. ishlari bag'ishlangan. Shifoxona pedagogikasi uzoq va og'ir kasal bo'lgan bolaning individual ta'lim ehtiyojlarini amalga oshirishni ta'limdagi oliy qadriyat deb e'lon qiladi va uzoq va og'ir kasal bo'lgan bolalarning pedagogik reabilitatsiyasini ta'minlash uchun tibbiy statsionar sharoitida to'laqonli ta'lim muhitini shakllantirishni asosiy vazifa qilib qo'yadi.

Zamonaviy gospital pedagogika tibbiyot, psixologiya va pedagogika kesishuvida shakllanib, shifoxona muassasalarida uzoq muddat davolanayotgan va uyda davolanayotgan bolalarning ta'lim olishi va rivojlanishi sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish yo'nalishlarini belgilab beradi. Gospital pedagogika sohasidagi ilmiy tadqiqotlar surunkali somatik kasalliklarga chalingan bolalarni pedagogik reabilitatsiya qilishning yaxlit zamonaviy tizimini qurishga qaratilgan bo'lib, uzluksizlik, uzluksizlik, individuallashtirish, differentsiatsiyalash va personallashtirish tamoyillariga tayanadi. Gospital pedagogika sohasidagi tadqiqotlarning predmetini uzoq va og'ir kasallikka chalingan bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlarini hisobga olish asosida gospital maktablarda bolalarni o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish va ta'lim jarayonini qurishning ilmiy asoslari tashkil etadi.

Kasbiy kompetentlik – ko'p qirrali va ko'p jihatli tushuncha, u jamiyatda sodir bo'luvchi o'zgarishlarga mos ravishda o'zgaradi hamda turli nuqtayi nazarlar ostida ko'riladi. O'qituvchining “kasbiy kompetentligi” tushunchasi mazmuniga zamonaviy yondashuvlar tahlili ko'rsatishicha, mazkur muammo hozirgi vaqtda uning talqiniga turlicha mazmun baxsh etuvchi, mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan faol o'rganilmoqda. Ye.V. Bondarevskaya kasbiy kompetentlik tushunchasini uning asosiy komponenti hisoblangan, “ta'limda hunarmandni” emas, balki yuqori madaniyatli mutaxassisni shakllantirishga yordam beradigan “pedagogik madaniyat” tushunchasi bilan bog'laydi.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Suningdek, kompetentsiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

Bo'lajak o'qituvchilardan talab qilinadigan kompetentlik quyidagi turlarga ajratiladi:

- bo'lajak o'qituvchi tomonidan o'z bilimini muntazam ravishda boyitib borish, egallagan malakalarini takomillashtirishga tayyor bo'lish, zamon yangiliklaridan boxabar bo'lish;

- ta'lim jarayonida axborot kommunikatsiya, informatsion texnologiyalari va o'qitish vositalarining barcha turini qo'llay olish ko'nikma va malakasiga ega bo'lish; - anglangan va mustaqil faoliyat (mustakil fikr, maqsad qo'yish, o'quv adabiyoti va qo'shimcha manbalardan to'g'ri foydalana olish);

- tashabbuskorlikda o'z harakatlari uchun javobgarlikni his qila olish;

- tanqidiy fikr yurita olish va dars jarayonida yuzaga kelgan muammoli vaziyatlarni ijobiy hal eta olish;

- hamkorlik, o'zaro bir-birini tushunish, empatiya bildirish, o'zaro hurmat va ishonchga asoslangan pedagogik muloqotni o'rnatish; - chuqur kasbiy bilimdonlikka ega bo'lish [3].

Bo'lajak o'qituvchining kasbiy bilimdonligi va qobiliyati mezonlariga quyidagilar kiradi:

Ijtimoiy bilimdonlik

- dars mobaynida auditoriya bilan samarali o'zaro muomala shaklini tashkil eta olish, yoshlar bilan til topish va sog'lom ma'naviy muhitni hosil qila olish qobiliyati. Uslubiy bilimdonlik

- barcha bilimlarini, ko'rgankechirganlarni yoshlarga tushunarli, ravon tilda yetkaza olishi, ta'lim texnologiyasi va metodlaridan samarali foydalanishi. Ixtisoslik bilimdonligi – o'z fani va predmeti sohasi bo'yicha chuqur va har tomonlama mukammal bilimlarga ega bo'la olishi, o'z ustida ishlash qobiliyati.

Gospital pedagogikasi — bu sog'liqni saqlash muassasalarida o'quvchilar uchun ta'lim jarayonini tashkil etishdir. Bu jarayonda o'qituvchilar o'quvchilarning kasallik holatiga mos ravishda ta'lim berishlari zarur. Ushbu yondashuv o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Gospital pedagogikasida metodik yondashuvlar

- Individualizatsiya va differentsiyalash: Har bir o'quvchining ehtiyojlariga mos ravishda ta'lim jarayonini tashkil etish.

- Interaktiv usullar: O'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydigan turli xil interaktiv metodlarni qo'llash.

- Multimedia va IT texnologiyalari: Ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarni jalb etish.

Gospital pedagogikasi bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon o'qituvchilarga kasallik davrida o'quvchilar bilan samarali ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini gospital pedagogikasi vositasida rivojlantirish metodikasini takomillashtirish, zamonaviy ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biridir. Ushbu yondashuv orqali o'qituvchilar nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ham hissa qo'shadilar. Gospital pedagogikasi metodlari va yondashuvlarini qo'llash, ta'lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilish imkonini beradi, bu esa o'z navbatida o'quvchilarning muvaffaqiyatiga olib keladi. Kelajakda ushbu sohada yanada chuqur tadqiqotlar olib borish zarur, chunki sog'lom avlodni tarbiyalashda ta'limning roli beqiyosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 4947-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-maydagi "Gematologiya, onkologiya, klinik immunologiya, boshqa statsionar va uzoq muddatli ambulator davolanishda bo'lgan bolalar uchun maktabgacha ta'lim va tarbiya hamda umumiy o'rta ta'lim berish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 234-sonli qarori
3. Гусев И.А. Ключевые этапы развития госпитальной педагогики в рамках модели проекта госпитальных школ России «УчимЗнаем» // Наука и школа. 2022. № 1. С. 149–161.
4. Давыдов В.В. Проблемы развивающего обучения / В.В. Давыдов // Москва Академия, 2004 -282 с.
5. Долуев И.Ю., Зорина Е.С., Соловьев Д.А. Выявление актуальных запросов психологопедагогического сопровождения семей с детьми, перенесшими онкологические и гематологические заболевания // Перспективы Науки и Образования. 2023. №1. С. 451-468.